

## **“Elektron hukumat ” mavzusiga oid muammoli topshiriq**

**Vaziyat.** Tasavvur qiling, siz davlat tashkilotida IT mutaxassis sifatida ishlaysiz. Aholiga xizmat ko‘rsatish jarayonlari asosan an’anaviy usulda, ya’ni qog‘oz hujjatlar va navbat orqali amalga oshiriladi.

Bu esa quyidagi muammolarga olib kelmoqda:

- a. Fuqarolar uzoq navbat kutadi;
- b. Hujjatlarni ko‘rib chiqish sekin;
- c. Qog‘ozbozlik ko‘p;
- d. Xatoliklar va korrupsiya ehtimoli yuqori;

Shu sababli davlat tashkiloti elektron hukumat tizimini joriy etish orqali xizmatlarni raqamlashtirishni rejalashtirmoqda.

Ammo quyidagi muammolar mavjud:

- Aholining IT savodxonligi yetarli emas;
- Internetdan foydalanish darajasi past;
- Xodimlar yangi tizimga moslashishda qiynaladi;
- Axborot xavfsizligi muammolari mavjud;

**Topshiriq.** Muammoni hal qilish bo‘yicha yechim ishlab chiqish.

Quyidagi savollarga asoslangan holda yechim tayyorlang:

### **1. Muammoni tahlil qilish:**

- Davlat xizmatlarida asosiy muammolar nimalar?
- An’anaviy tizimning kamchiliklari qanday?

### **2. Yechimlar ishlab chiqish:**

- Elektron hukumat tizimini qanday joriy qilish mumkin?
- Qaysi texnologiyalar samarali?

### **3. Strategiya:**

- Elektron hukumat tizimini bosqichma-bosqich qanday joriy etasiz?
- Xodimlarni o‘qitish qanday amalga oshiriladi ?

### **4. Xavf va cheklovlar:**

- Dasturiy muammolar qanday?
- Xodimlarning yangi tizimga moslashishida qanday qiyinchiliklar bo‘ladi?

#### **5. Natijalarni baholash:**

- Samaradorligini qanday o‘lchaysiz?
- Qaysi KPI ko‘rsatkichlardan foydalanasiz?

#### **Muammoli topshiriqni bajarish orqali kutilayotgan natija:**

Talaba quyidagilarni namoyish etishi kerak:

- Elektron hukumat tushunchasi;
- Raqamli xizmatlar mohiyati;
- Zamonaviy IT texnologiyalarni qo‘llash;
- Muammoni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish;
- Tizim samaradorligini baholash;